

Urganch davlat universitetida o'quv adabiyotlarini  
ekspertizadan o'tkazish va nashr etishga tavsiya berish  
jarayonida elektron platformadan foydalanish  
Tartibiga 1-ilova

**O'quv adabiyotlariga rasmiy maqom hamda nashr etishga ruxsat berish to'g'risidagi  
guvohnomasini rasmiylashtirish uchun tizimga biriktiriladigan hujjatlar va talablar**

**RO'YXATI**

**1. O'quv adabiyot qo'lyozmasi (pdf shaklda mualliflar va taqrizchilar nomi ko'rsatilmagan holda)**

O'quv adabiyoti qo'lyozmasiga qo'yiladigan qo'shimcha talablar:

-titul varag'ida vazirlik, universitet va o'quv adabiyotining nomi, turi, yo'nalish yoki mutaxassislik kodi va nomi yoziladi;

-qo'lyozmaning 2-betida (*titul varag'ining orqasi*) o'quv adabiyotining nomi, annotatsiyada o'quv adabiyoti tavsiya etilgan ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassislikning kodi va nomi yoziladi;

-qo'lyozma elektron tahriri A4 formatdagi standart o'lchamdagi varaqlarda, 1,5 interval, Times New Roman 14 strift; (matn yuqoridan- 20 mm, pastdan-20 mm, chapdan-30 mm, o'ngdan-15 mml) hoshiyalar oralig'iga joylashtiriladi; betlar pastki qism markazida, ketma-ketlik saqlangan holda raqamlanadi).

- mundarija oxirida (o'zbek, rus, ingliz), adabiyot tiliga mos mundarija mavzu joylashgan matni oson topish uchun "Mundarija tashlil etish" ("Создание оглавления", "Create a table of contents") qoidalariga muvofiq ishlangan bo'lishi kerak.

**2. O'quv reja nusxasi:**

- o'quv rejasidagi tegishli fanning nomi belgilab qo'yiladi;

- o'quv adabiyotining nomlanishi tasdiqlangan o'quv rejasidagi fan nomiga muvofiq bo'sin;

- kelajakda o'tiladigan fan bo'lishi lozim.

**3. O'quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan hamda tasdiqlangan fan dasturi nusxasi.**

**4. O'quv adabiyotining mahalliy yoki xorijiy antiplagiat tizimlarida tekshiruvdan o'tkazilganligi to'g'risidagi xulosa:**

- o'quv adabiyoti mahalliy yoki xorijiy antiplagiat tizimlarida tekshiruvdan o'tkazilganda 60 % orginallik ko'rsatkichiga ega bo'lishi talab etiladi.

**5. Kafedra yig'ilishi qaroridan ko'chirma:**

- mudir va kotib tomonidan imzolanib, tasdiqlangan shaklda.

**6. Ichki va tashqi taqrizlar:**

- taqrizchilarning F.I.Sh., imzosi va sanasi qayd etilgan nusxasi pdf shakllarda;

- taqrizlar qog'ozda imzolangan bo'lsa barcha varaqlari skanerlanadi;

- elekton raqamli imzolangan bo'lsa QR kodli pdf fayli yulkanadi.

**Eslalma:** O'quv adabiyoti qo'lyozmasining biror qismida muallif(lar) va taqrizchilar nomlari keltirilgan taqdirda o'quv adabiyoti qo'lyozmasi talabgorga qaytariladi.